



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2025-yil «8» aprel

129-son

Toshkent shahri

**Kasbiy ta’lim tizimida “Eng yaxshi raqamli ta’lim resurslari”
Respublika ko‘rik-tanlovini o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 16-oktabrdagi PF–158-son Farmoniga muvofiq kasbiy ta’lim tashkilotlarini raqamli kontentlar bilan ta’minlashni kengaytirish, raqamli ta’lim resurslarini yaratilishi qo‘llab-quvvatlash, metodik ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘qituvchi va ishlab chiqarish ta’limi ustalari o‘rtasida 2024/2025 o‘quv yilidan boshlab “Eng yaxshi raqamli ta’lim resurslari” Respublika ko‘rik-tanlovi (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) tashkil etilsin.

2. Quyidagilar:

Kasbiy ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlar o‘rtasida “Eng yaxshi raqamli ta’lim resurslari” Respublika ko‘rik-tanlovini o‘tkazish tartibi **1-ilovaga** muvofiq;

“Eng yaxshi raqamli ta’lim resurslari” Respublika ko‘rik-tanlovini o‘tkazish bo‘yicha Tashkiliy qo‘mita tarkibi **2-ilovaga** muvofiq;

Kasbiy ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari o‘rtasida “Eng yaxshi raqamli ta’lim resurslari” Respublika ko‘rik-tanlovini o‘tkazish nominatsiyalari **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki, har yili:

Tanlovning 1-bosqichi kasbiy ta’lim tashkilotlari miqyosida 30-aprelga qadar;

Tanlovning 2-bosqichi Qoraqalpog‘iston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shaharlari miqyosida 30-mayga qadar;

Tanlovning 3-bosqichi Respublika miqyosida 30-iyunga qadar o‘tkaziladi.

4. **Kasbiy ta’lim tizimini rivojlantirish departamenti** (U. Alijonov),
Professional ta’limni rivojlantirish instituti (Z. Xudayberdiyev):

tanlovning Respublika bosqichlarini yuqori saviyada o‘tkazishni tashkil etsin;

tanlov natijalariga ko‘ra eng yaxshi raqamli ta’lim resurslarini respublika bo‘yicha ommalashtirish choralari ko‘rsin;

tanlovning tegishli bosqichlarida tanlov hay'ati a'zolariga raqamli ta'lim resurslarni baholash bo'yicha grafik asosida seminar o'tkazsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalari boshliqlari:

har yil 10-martga qadar tanlovning hududiy bosqichini o'tkazish bo'yicha Tashkiliy qo'mitasini shakllantirsin;

tanlovning 1- va 2-bosqichlarini yuqori saviyada o'tkazilishini ta'minlasin;

tanlovning 1-bosqich natijalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalarida ma'lumotlar bazasini shakllantirsin;

har yil 5-iyunga qadar tanlovning 2-bosqichi yakunlari bo'yicha Respublika bosqichiga tavsiya etilgan raqamli ta'lim resurslari ma'lumotlarini Professional ta'limni rivojlantirish institutiga taqdim etsin;

Tanlovning Respublika bosqichida g'olib deb topilgan raqamli ta'lim resurslari mualliflarini tanlovning taqdirlash marosimida ishtirok etishini ta'minlasin.

6. Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi (J. Xalilov), Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi (K. Artikov) tanlovning Respublika bosqichi g'oliblarini taqdirlash bilan bog'liq xarajatlar (pul mukofotlari) Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'rmasi mablag'lari hisobidan Professional ta'limni rivojlantirish institutining asoslangan hisob-kitoblariga muvofiq ajratish choralarini ko'rsin.

7. Axborot xizmati (N. Abduqunduzova) tanlovning barcha bosqichlarini ommaviy axborot vositalarida yoritib borilishini tashkil etsin.

8. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining "Professional ta'lim tizimida "Eng yaxshi raqamli ta'lim resurslari" Respublika ko'rik-tanlovini o'tkazish to'g'isida" 2023-yil 26-iyuldagi 329-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur buyruq ijrosini nazorati vazirning birinchi o'rinbosari Sh. Daliyev zimmasiga yuklansin.

Vazir



K. Sharipov



Hujjat haqiqiyligini mobil qurilma yordamida QR- kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin